

IS'HOQXON IBRATNING MA'RIFIY FAOLIYATI VA ILMIY-ADABIY MEROSI

Feruza Azizova

O'zbekiston xalqaro islom

Akademiyasi, Tarix(islom sivilizatsiyasi) yo'nalishi 1-bosqich magistranti

Is'hoqxon To'ra Ibrat faoliyat doirasi keng, milliy uyg'onish davrining mashhur pedagoglaridan biridir. Ibratning asli ismi Is'hoqxon, otasining ismi Junaydullaxo'jadir. Ibrat uning adabiy taxallusidir. Is'hoqxonning o'ziga «Ibrat» taxallusini olish boisi shundaki, u faoliyatining dastlabki yillaridan boshlab ma'rifatparvar shoir, pedagog olim sifatida zamondoshlarini zamon ilmidan, ilg'or madaniyatdan, yangicha ta'lim-tarbiya tizimidan ibrat olishga da'vat etdi. Shuning uchun ham u o'ziga Ibrat taxallusini tanladi.

Is'hoqxon 1279-hijriy (1862-milodiy) yilda Namangan yaqinidagi To'raqo'rg'on qishlog'ida tug'ildi. Uning otasi Junaydullaxo'ja Sunnatullaxo'ja o'g'li mashhur mutasavvif Ahmad Yassaviy avlodidan edi. Uning besh tanobcha yeri bo'lib, dehqonchilik, bog'dorchilik bilan ro'zg'or tebratgan.

Onasi Huribibi o'z davrining o'qimishli, oqila ayollaridan bo'lib, uyida qishloq qizlarini o'qitardi, shu bilan birga, adabiyot va san'atga muhabbat qo'ygan, she'riyat bilan ham shug'ullangan, Navoiy, Lutfiy, Jomiy, Bedil, Mashrab kabi buyuk shoirlar asarlarini mutolaa qilish xonadon ahli uchun sevimli mashg'ulot hisoblangan. Oiladagi bunday hayot tarzi Is'hoqxonda adabiyot va san'atga muhabbatning erta paydo bo'lishi uchun asosiy omil bo'ldi. 1870-yilda otasi Junaydullaxo'ja vafot etadi. Is'hoqxon dastlab mahalla maktabida tahsil ko'radi. Keyinroq o'z uyida onasining qo'lida o'qiydi.

Huribibi o'z maktabida faqat quruq yodlatish bilangina cheklanmay, yozishni, husnixatni ham o'rgatar edi. Shuning uchun ham Is'hoqxon asarlarida onasini ustoz sifatida hurmat bilan tilga oladi. Adabiyot va san'atga zo'r muhabbat qo'ygan Is'hoqxonni o'qishni davom ettirish uchun Qo'qonga yuboradilar. U XIX asr boshlarida barpo etilgan Muhammad Siddiq Tunqotar madrasasiga 1878-yilda o'qishga kiradi. Uning Qo'qonda tahsil ko'rgan yillari (1878-1886) o'zbek adabiyotida, madaniy hayotida, ayniqsa, maorifda tub o'zgarishlar sodir bo'layotgan davrga to'g'ri keldi. Uning bu adabiy-madaniy-ma'rifiy hayotdan bahramand bo'lganligi shubhasiz. U Qo'qon adabiy muhitining yirik namoyandalari Muqimiy, Furqat, Muhyi, Nodim, Haziniylar bilan yaqin munosabatda bo'lgan, adabiy mushoiralarda ishtirok etgan.

Is'hoqxon Ibrat madrasa ilmlari bilangina cheklanib qolmadi, o'qish davomida buyuk Sharq olimlari asarlarini mustaqil tarzda qunt bilan mutolaa qildi, arab, fors va rus tillarini chuqur o'rgandi. Uning ayniqsa til o'rganishga qobiliyati kuchli bo'lgan. U rus va o'zbek tillarida «Turkiston viloyatining gazetisi», «Turkestanskije vedomosti», Turkiston o'lkasiga yangi tarqalayotgan Ismoilbek Gasprialining «Tarjimon» gazetasi bilan birinchi marta Qo'qon madrasasida o'qib yurgan kezlari tanishdi.

«Usuli tahajji», ya'ni, hijo usuliga asoslangan maktablardan birmuncha farq qilar edi. Is'hoqxon Qo'qonda o'qib yurgan vaqtlaridayoq o'lkada ochila boshlagan rus maktablaridagi o'qitish usullarining mahalliy maktablarda hukm surayotgan hijo hamda quruq yodlash usulidan afzalligini sezgan edi. Is'hoqxon o'z maktabiga nisbatan ilg'or bo'lgan, savodga o'rgatishda ancha yengillik vujudga keltiruvchi tovush (savtiya) usulini tatbiq qildi va «usuli savtiya»ni eski usul tarafdorlaridan himoya qildi. Biroq bu maktabida uzoq ishlay olmadi. Ba'zi bir johil mutaassiblar uning maktabini «kofirlar maktabi» deb e'lon qilib, xalq bolalarini bu maktabdan qaytarishga intilib, general-gubernatorlik amaldorlari yordamida yoptirdi. Bu yosh maorifchi Is'hoqxon Ibratning mutaassiblar hamda mustamlakachi ma'murlar bilan birinchi to'qnashuvi edi.

Is'hoqxon Ibrat haj safari davomida Istanbul, Sofiya, Afina, Rim kabi Yevropaning markaziy shaharlarida bo'ldi. Ancha vaqt Afg'onistonning Kobul, Arabistonning Jidda kabi shaharlarida istiqomat qildi. Makka shahridan Qizil va Arabiston dengizlari orqali Hindistonga keldi. 1892-1896-yillarda Hindistonning eng katta port shaharlari Bombay va Kalkuttada yashadi. Bu yerda ko'p ishlatiladigan arab, fors, hind, urdu va ingliz tillarini o'rgandi. Chet ellarda xalq hayoti va madaniyati bilan tanishdi, o'rgandi, ilmiy asarlar uchun qimmatli ma'lumotlar to'pladi. U sharq xalqlari tillari bilan bir qatorda g'arb xalqlari tillarini ham bilish zarur deb hisobladi va Arabistonda fransuz tilini, Hindistonda ingliz tilini, shu bilan birga, eng qadimgi finikiya, yahudiy, suriya, yunon yozuvlarini o'zlashtirdi. Zamondoshi Ibrohim Davron Ibratning sharq va g'arb tillarini bilganligini e'tirof etib shunday yozadi: «... turkcha, forsha, hindcha, ruscha lison bilib, yana ruscha, fransuzcha, armanicha va boshqa xatlar yozmoqqa mohirdurlar».

O'n yilga yaqin davom etgan sayohat yangicha o'qituv tizimga bo'lgan munosabatini mustahkamladi, u yangi kuch – g'ayrat bilan ma'rifatparvarlik faoliyatini yo'lga qo'ydi. Sayohat davomida yiqqan katta materiallari asosida olti til- arab, fors, hind, turk, o'zbek va rus tillarini o'z ichiga olgan «Lug'ati sittati al-sina» (olti tilli lug'at) asarini yaratdi.

Ibrat zamonning peshqadam pedagogi sifatida bolalarni maktabdan bezdiruvchi, ularda muallimga nisbatan hurmat emas nafrat uyg'otuvchi tan jazosiga birinchilardan bo'lib qarshi chiqdi, u faqat maktabda emas, oilada ham bolani kaltaklab tarbiyalash juda ham noto'g'ri usul ekanligini alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, maktab-madrasalarni isloh qilish bilan bir qatorda millatni, uning tafakkurini isloh qilish kerak. Uning «Oyna» jurnalida bosilgan bir maqolasi «Millatni kim isloh etar?» deb nomlanadi. Unda muallif shariatdin peshvolari masjidlarda amru ma'ruf o'tkazib, millatni shariatga xilof bid'atlardan voqif qilsalar, “vazifalari ta'limu hidoyati xalqulloh” bo'lgan ulamolar Alloh oldidagi vazifalarini ado etgan bo'lur edilar, degan fikrni bayon qiladi. Bu esa, o'z navbatida maktab – madrasalar islohi, usuli jadid maktablariga keng yo'l ochar edi. Bu tadbir «islom barcha fanlarning bulog'idir» aqidasi mos kelar edi.

Is'hoqxon Ibratning so'nggi yillardagi hayoti ancha tahlikali vaziyatda o'tdi. Birinchidan, qarilik, ikkinchidan, 1930-yildan e'tiboran hamma lavozimlardan, ishlardan ozod qilingan, hatto qarilik nafaqasi ham tayinlanmagan edi. Uning ustiga mahalliy hukumat ma'muriyati unga ishonchsizlik bilan qarar edi. Ibratning boshi uzra ham qatag'on bulutlari quyuqlashib bormoqda edi. 1937-yilning mart oyida dahshatli qatag'on Vatanimizning fozil kishilari qatorida Is'hoqxon to'ra Ibratni ham ajdahoday o'z domiga tortdi. 75 yoshni qoralagan keksa shoir, pedagog bir qora mashina to'la kitob bilan Andijon turmasiga olib ketildi. U sho'rolar turmasida bir necha oy yotib, hayot bilan vidolashdi.⁷³

Ibrat hayoti va ijodini ilmiy tarzda o'rganish mustaqillik yillarda amalga oshirildi. Uning asarlari chop etildi. Ulug'bek Dolimov 1971-yilda O'zbek ma'rifatparvar shoiri Ibratning hayoti va ijodi mavzusida filologiya fanlari nomzodligi dissertatsiyasini yoqladi. Ulug'bek Dolimov, Nurboy Jabborov, Begali Qosimov, Naim Karimov va boshqalar Ibrat asarlarini keng ommaga tanishtirish maqsadida "Tanlangan Asarlar" ni tayyorlashdi.

Mutafakkir o'z asarlarida ta'kidlaganidek, millatning ma'naviy yuksakligi kitob va ilm saodatiga chanqoqlik bilan ushbu muammolarga barham berishi mumkin. Ibrat asarlarida o'tmish va zamon voqealari muqoyasa qilinadi. Muhim xulosalar chiqariladi. Ibrat o'z davrining donishmandi sifatida millat va yoshlar tarbiyasi xususida ko'p o'ylanadi. Yoshlarni vaqtlarini uvol-u gunohlar bilan tahditomuz fikrlar bilan zoye' ketkazmasdan, ming yillik ilm-u ijoddan ma'rifatlanishga chaqiradi. Ibrat ilk bor «*Matbaai Is'hoqiya*» matbaasida nur taratayotgan quyosh tasviri ichida ilm so'zini o'yib yozgan, go'yo ilm nur taratayotgan quyoshga o'xshatilgan. Bu ramziy tasvir matbaasida nashr etilgan barcha kitoblarga tushirilgan hamda bugunga qadar ham bu ramziy timsol ma'rifat bulog'i bo'lgan ko'pgina kitoblarda saqlanib turibdi.

Biz bugungi kunda milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari qadam qo'yar ekanmiz, ana shu millat fidoyilarining kasbini kamol toptirgan darg'alar masnaviyxonlik, hofizxonlik, navoiyxonlik kabi umuminsoniy qadriyatlarimizni millatimiz ong-u shuurida uzoq tarixga ega tafakkur singari yangidan tiklashimiz lozim. Zero, jamiyatimiz taraqqiyot, Yangi bir tamaddun Uchinchi Renessansga qadam qo'yishi arafasida xalqimiz ilmdan uzoqlashmay, jadid ma'rifatparvarlarimizda ham ta'kidlanganidek ko'r-ko'rona fisqu-fasod va illatlarga berilmay, hayotning, dunyoning shakligagina emas, balki mazmun-mohiyati, istiqboliga diqqatli bo'lishlari, nihoyat ularni bu saodatga erishtiruvchi yagona hidoyat ilmu-ma'rifat ekanini anglashlari dasturul amaldir.

⁷³ <https://www.bukhari.uz/?p=2975>.